

XX asr jadidchilik harakatida Munavvarqori Abdurashidxonovning tutgan o'rne

Asrarov Doniyor Odiljon o'g'li

(Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi)

Bekmuradov Shahzod Xasan o'g'li

(Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi)

Turkiston jadid darg'alaridan biri hisoblangan Munavvarqori Abdurashidxonov- O'rta Osiyo jadidchilik maktabining asoschisi hisoblanadi. XX asr o'zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib, shoir, ma'rifatparvar Munavvarqori Toshkentning Darxon mahallasida 1878- yilda ziyoli oilasida tug'ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li mudarris, onasi Xosiyat otinoyi bo'lgan. Oilada uchinchi o'g'il bo'lib, ikki akasi muallim bo'lgan. Otasi erta vafot etgani sababli tarbiyani onasidan oladi. Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o'rganib, hofizi Qur'on bo'lgan. 1185-1890- yillarda Mirarab madrasasida tahsil olgan, lekin tahsilni ohiriga yetkazolmay, Toshkentga qaytib imomlik va muallimlik bilan shug'ullangan[1]. 1901-yilda usuli-jadid maktabini ochgan va maktablar uchun maxsus darsliklar yozgan. 1906-yildan „O'rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy“ gazetasida adabiy xodim bo'lib, ishlaydi. 1906-yilda noshir va muharrir sifatida „Xurshid“ gazetasini tashkil etadi. Shuningdek, Munavvarqori „Shuhrat“ 1907-yil, „Tujjor“ 1907-yil, „Osiyo“ 1908-yil, gazetalari g'oyaviy boshqaradi va adabiy xodim vazifasini bajargan. Bu ilmiy maqolamda aynan Turkistondagi siyosiy vaziyat, ta'lim tizimi va yangi uslubdagi maktablar paydo bo'lishi va o'zbek xalqining savod darajasi qay yo'sinda ancha jadallab, dunyo ilm- fani doirasidagi yangicha o'qitish uslubi „usuli jadid“ va „usuli savtiya“ kabilarni ayni Munavvarqori ijodi va yuritgan faoliyati misolida chuqurroq o'rganish uchun aynan shu inson faoliyati misolida chuqurroq o'rganish uchun aynan shu inson faoliyatini yoritishni niyat qildim. Munavvarqori nafaqat izlanuvchan ijodkor-jadid balki turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi ham hisoblanadi. Jumladan U „Jamiyati Imdodiya“ 1909-yil, „Turon“ 1913-yil, „Turkiston“ kutubxonasi 1914-yil, „Umid“ 1914- yil, „Ko'mak“ 1921-yil, jamiyat, tashkilot va uyushmalarda muassis, muavin, rais, a'zo bo'lib, ishlaydi. Sho'rolar hukumati davrida Xalq dorilfununi sho'rosining raisi, Turkiston Maorif Xalq komissarligi turk sho'basining ish yurituvchisi 1918-yil, Toshkent shahri maorif noziri, sharq xalqlari s'yezdi, 1920-yil Boku delegati va hay'ati a'zosi, Toshkent shahri ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri 1921-yil, Akademmarkaz raisi 1922-yil, Narimonov nomidagi pedtexnikum, ayollar ped institutda 1923-1925-yillar muallim hisoblanadi. Jumladan; „Adibi avval“ 1907-yil, „Adibi avval“ 1907-yil, „Tarixi qavm turk“ „Tajvid“ 1911-yil, „Havoyiji diniya“ „Tarixi Islomiya“ 1912-yil, „Yer yuzi“ 1916-1917 yillar 4 qismdan iborat. „O'zbekcha til saboqligi“ darsliklari ¹bir necha marta chop etilgan[2]. Munavvarqori 1914-yilga kelib, o'ziga o'xshagan taraqqiyparvar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab „Sabzavor“ nomi bilan nashr ettiradi. Munavvarqori o'z faoliyati davomida, pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham yuritgan, shu sababli hukumat tomonidan bir necha bor hibsga olingan. 1917-1924-yillarda Munavvarqori „Shoroyi islom“ „Turk adam markaziyat“ „Ittihad va taraqqiyot“ „Milliy ittihad“ „Nashri maorif“ kabi jamiyat, firqa va tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik Munavvarqori vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori shu sababli Qo'qon shahrida tashkil topgan „Turkiston muxtoriyati“ ni qo'llab-quvvatlagan. Munavvarqori 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olinib, Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan. Munavvarqori tomonidan Shayhontohur da ochilgan jadid maktabi „Rushdiya“ maktabi „Namuna“ deb atalgan. XX asrning 10-yillaridan boshlab, usuli jadid maktablarida ona tili va adabiyot o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar darsliklar o'qitishning texnik vositalari ko'rgazmali qurollar yangi o'qitish usullari qo'llanila boshlandi. Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li

3. Munavvarqori Abdurashidxonov „Yer yuzi“ 1915-1916- yillar S-4; 5; 6; 7.

4. Sirojiddin Ahmad „Munavvarqori“ esse „Sharq yulduzi“ jurnali 1992-yil 5-son.

5. Xolboyev S. „Fan va Turmush“ T., 1991 S-145; 176; 190.

o'qitishda ko'rgazmalikka alohida e'tibor qaratadi. Avloniy va Hamza ona tili va dabiyot darslarida ifodali o'qish va uning deklamatsiya, xor bo'lib o'qish, timsollarga bo'lib o'qish kabi shakllarini ishlab chiqdilar. Xususan Munavvarqori va Jadid pedagoglari tomonidan XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasi, uchun asos bo'lgan, nazariy tamoyillar ishlab chiqiladi, ona tili va adabiyot hamda unga yaqin fanlarni o'qitish uslubiyati, texnologiyasi va vositalaridan amaliy foydalanish davriga qadam tashlanadi. Munavvarqori o'zining „Yer yuzi“ nomli kitobida juda ham qimmatli ma'lumotlar beradi. M. Zamonaviy o'zbek pedagogikasi va uning ajralmas qismi bo'lgan ilg'or o'qitish metodlari tashqari olib kirilgan emas, balki jadid pedagoglari tomonidan ishlab chiqilgan edi. Hozirda analitik tovush metodi deb yuritiluvchi o'qitish usulini Saidrasul Saidazizov, va Munavvarqori Abdurashidxonovlar tayyorlab darsliklarga tadbiiq etgan edi. Natijada bu tavsiyalar asosida 1902-1918- yillar orasida 15 dan ortiq alifbo darsliklari dunyo yuzini ko'radi. Hozirgi alifbo darsliklarining yangi nashrlarini tayyorlashda Saidrasul Saidazizov, Munavvarqori Abdurashidxonov va Rustambek ibn Yusuf bekhojilarning alifbo darsliklaridan ijodiy foydalanish samarali natijalar beradi. Turkiston Muxtoriyatining vujudga kelishida va davomiyligida jadidlarning tutgan o'rni nihoyatda beqiyosdir. Sovet tarixshunosligida uzoq vaqt mobaynida jadidchilik „Reaksiya“ g'oyaviy oqim sifatida ko'rsatiladi. Jadidlarning tarixiy xizmati ijtimoiy vazifalarni hal etishning tadbiiy islohot tamoyillarini ishlab chiqarishda farmasiyaviy, institutsional o'zgarishlarning eng samarali yo'lini tanlashlari va mustamlaka tuzumini tugatish uchun kurash olib borishlarida ko'rinadi. Ularning zamonaviy ta'lim amaliyotiga oid konseptual g'oyalari ma'naviy me'ros sifatida hozirgi islohotlarning strategiya va keng miqyosli yo'lga muayyan darajada asos bo'lib xizmat qiladi. Jadidchilik ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy rivojlanishning tub burilish bosqichida yuzaga keladi[3]. Mahalliy vatanparvarlarning mustamlaka Turkistonda inqirozli holatini umumjahon jarayonlaridan tobora ortda qolayotganini, tub aholining erkparvarlik harakatlariga keskin zarba berilib, hamma joylarda bostirilishini, ma'naviyat sohasidagi turg'unlikni idrok etishlari, jamiyatni atroflicha isloh etish kerak degan g'oyaning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Biroq bu islohotchilik harakati tarixiy murakkab yo'lni bosib o'tadi. Jadidchilik jamiyat rivojlanishining istiqbollarga oid turli falsafiy fikrlar va dunyoqarashlarning to'qnashuv maydoniga aylanadi[4]. Bu ijtimoiy rivojlanishning asosiy masalalari va eng avvalo, feodalizm hamda mustamlakachilikning asoslarini buzish mafkurasini konseptual jihatdan idrok etishda ko'rinadi. 1-bosqichda jadidchilik harakati yetakchilari asosiy e'tiborni butun ijtimoiy tizimni o'zgartirishdan ko'ra, ma'naviyat sohasini yangilashga qaratdilar. Jadidlar yangi usuldagi maktablar tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalari (ayniqsa tabiiy fanlar bo'yicha) nashr etish, g'arb texnika va texnologiyasini o'rganish zaruriyatini, Yevropa madaniyati yutuqlaridan foydalanishni targ'ib etish, orqali milliy dunyoviy, ta'limni yuzaga keltirish, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratdilar[5]. Huquqshunos D. Toshqulov ning ishlarida ko'rsatilganidek ma'rifatparvarlar, jumladan Munavvarqori asarlarida ham mustamlaka - feodal jamiyatning siyosiy- huquqiy muassasalari markaziy o'rin tutadi. Ular Jumladan Munavvarqori, o'z asarlarida hokimiyatning qonunsizlik, va poraxo'rlik haddan, ziyod og'ir soliqlar, kabi zulmkorligi ko'rinishlarini ayamay tanqid qiladi[6]. Jadidlar mustamlaka Turkistoni mahalliy ma'muriyati vakillarining saylov tizimini qoralashadi, chorizmning soliq siyosatiga ham norozilik bildiradilar. 2-jadidchilik yo'l boshchilari, tarixiy taraqqiyotni tezlashtirish, islomni yangilash, madaniy, bozor makonining ijtimoiy-iqtisodiy, shart-sharoitlarni yaratishni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir[7]. Yevropa va Rossiyaning ko'pgina ma'rifatlardan farqli o'laroq jadidlar dinni rad etishmadi, chunki ular ateist emasdilar. Munavvarqori fikriga ko'ra qo'shni davlatlar ilm-fani, chet el yozuvchilari asarlarini, Ogyust Kant asarlarini o'zlashtirish lozim deb aytadi - Munavvarqori. 1905-1907- yillarda Turkistonda jadidchilik harakati tashkiliy va g'ovayiv, jihatdan, chiniqadi. ¹ Munavvarqori va uning ijodiy faoliyati to'g'risida suratga olingan hujjatli film Munavvarqori ning quyidagi so'zlari bilan boshlangan. „Ey qardoshlar, voy millatdoshlar, ko'zimizni g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizga nazar solmog'imiz lozimdir[8]. Har millat o'z saodat hol va istiqbolini muhofazasiga birinchi vosita ilm olmoqqa qanoat hosil qilib, ilm va maorifga ortiq darajada qo'shish hosil qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli bo'lib

hamma olamga masxara va kulgu bo'lmog'imizga hech shubha yo'qdir. Munavvarqori o'zi tashkil etgan „Xurshid“ gazetasining bir sonida shunday deydi; „Kitoblarda tasnif qiling'on zotlar o'lg'onlari uchun aytgan so'zlarining zohiri shariatga muholif o'lsa ham haqiqati muvofiqdir[9]. Munavvarqorining tanlangan asarlari nomi ostida mashhur kitobi yangicha qiyofa aks etgan edi. Ushbu kitobdan olingan asarlarning salmoqli qismini Munavvarqorining Toshkent va Moskvadagi qamoqxonalarda yozgan xotiralari tashkil etadi. Bu xotiralar dastlab O'IIY (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) ning O'rta Osiyodagi muxtor vakili L.N.Belskiyning topshirig'I bilan yozila boshlangan. Tarixchu Naim Karimov ta'biri bilan aytganda ma'lumki Turkiston Muxtoriyat hukumati zo'ravonlik yo'li bilan tugatilgach, o'z vatanlarining mustaqil bo'lishini orzu qilgan ziyolilar turli yo'l va usullar bilan bolshevizmga qarshi kurash olib boradilar. Munavvarqori ana shu kurashning oldingi safida bo'libgina qolmay shu kurashga rahbarlik ham qiladi. Shuning oqibati o'laroq 1921 va 1926-yillarda qamoqqa olinadi. Ikkinchi marotaba hibslanganida u qamoqdan sovetlarga qarshi kurash olib bormaslik sharti bilan ozod qilinadi. O'IIY Munavvarqorini doimiy nazorat ostiga olib Lev Belskiy siymosida undan jadidlarning kuni kecha olib borilgan va 20-yillar so'ngida ham olib borayotgan faoliyatlari to'g'risida mukammal ma'lumotnoma yozib berishni ham talab qiladi. Agar Munavvarqori jadidlarning sovetlarga qarshi olib borgan va olib borayotgan xatti-harakatlarini yashirgudek yoxud xaspo'shlagudek bo'lsa, uni qamoqqa chiritishini pisanda ham qiladi. Munavvarqori o'z xotiralarini ana shunday qaltis vaziyatda yozadi. Atoqli adabiyotshunos Izzat Sulton Munavvarqori nomini endigina tilga olish mumkin bo'lgan kunlardan birida shunday voqeani aytib bergan edi. Kunlarning birida u tramvayda bir kekxa kishni uchratib uning yuz qirralari tanish ekanligiga e'tibor qaratgan. Kekxa kishi ham shoir Izzat Sultonni tanib, Munavvarqorining safdoshlaridan biri bo'lganini aytgan. „ Ismi yodimda yo'q, ammo familiyasi Karimov edi “ deb izoh bergan edi Izzat Sulton. Izzat Sultonga Bu voqeani aytib bergan kishi Mirxalil Karimov degan jasur insonni bo'ladi. Munavvar qori L. N. Belskiydek O'IIY xodimlari ixtiyorida „ milliy ittihadchilar“ qamoqqa olina boshlagach, Munavvar Qori paytini topib ularga „ Qanday aybni qo'ymasinlar, bo'ynigizga oling, aks holda biz ozodlikda yurgan yor-do'stlarimizning nomlarini aytib, ularning qamalishiga sababchi bo'lamiz. Biz o'zimizning jonimizni qurbon qilish evaziga millatni saqlab qolishimiz mumkin “ deb aytadi. 1874-yilda 6-iyun kuni yozilgan xatda Kerenskiy fikrini davom ettirib, „ Bosib olingan o'lkani assimillatsiya qilish maqsadida yangi o'quv muassasalarining xalq ommasi orasida bir xilda savod tarqatish uchun ochilishi taxminan qilinadi“- deydi. 1894-yil 27-mayda qabul qilingan qoidaga muvofiq madrasalarda katta mudarris sifatida ishlashlari mumkin edi. Bu kabilardan Munavvarqorining xabari bor edi. Munavvarqori dunyoqarashining shakllanishida yuqorida tilga olingan voqealardan tashqari Turkiya va Misrdan kelgan mushavviqlarning (Tadqiqotchilar) turk, ozarbayjon, fors va rus tillaridagi adabiyotning rolini inkor etib bo'lmaydi, Orenburg, Qozon, Peterburgda nashr etilgan matbuot va adabiyot Ziyo Ko'kali, Tavfiq Fikrat, Ziyo Posho kabi namoyondalardan tashqari islom va islom malakatlari istiqloli uchun qayg'urgan Muhammad Abdo, uning ustozlari Jamoliddin Afg'oniy kabi kishilarning asarlari faqat Munavvarqorigagina emas, balki ko'pgina musulmon mamlakatlaridagi yoshlarning ongi va dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni shunday murakkab bir sharoitda O'lka o'quv yurtlari bosh inspektori, N. Ostroumov V, Nalivkin, S, Gramenitskiy, P, Aznachev kabi nozirlar maktab dasturlari kitoblarni sinchiklab tekshirar edilar. Turkiston gubernatori Kavaleriya general-leytenanti Samsonov quyidagicha ko'rsatma beradi., uning mazmuni. 1. Boshlang'ich umumta'lim beradigan usuli jadid maktablari xalq o'quv yurtlari, inspeksiya ruxsati bilan ochiladi. 2. Usuli jadid maktablari o'qituvchilari ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarni o'z qavmlaridan tayinlashni nazorat qilib turishlari zarur. 3. Maktablarni ochganlarga shahar va qishloq jamoalariga bu maktablarda umumiy davlat tili hisoblangan rus tilini o'qitishni joriy qilish tavsiya etilsin. 4. Bunday maktablarni ochishda maktab ochuvchi shaxs yoki jamoa maktabda o'quv ishlari olib boriladigan o'quv kursi dasturi bilan birga darsliklar nomini taqdim etishni talab qilishi zarur. 5. Mening farmoyishim e'lon qilingan kundan boshlab barcha mavjud usuli jadid maktablarida ushbu qoidalarga amal qilish majburiydir deb aytadi.

Munavvarqori bunday ko'rsatmalarga e'tibor bermay usuli jadid maktablari uchun suv va havodek zarur bo'lgan darslik va dasturlarni ishlab chiqadi. Arxiv hujjatlarining ma'lumotlariga qaraganda Munavvarqorining „Adibi avval“ kitobi, S. Aziziyning „Ustodi avval“ kitobi bilan barobar rus-tuzem maktablarida o'qitilgan. Shu yillarda rus-tuzem maktablarining mashur o'qituvchilaridan hisoblangan S. Gramenskiyning rus va o'zbek tillarida „Ilmning manfaati“ P.A. Bitnikovning „Salim-ul avval“ kitoblari ham nashr etiladi. Biroq Munavvarqorining „Adibi avval“ kitobi Mahmudxo'ja Behbudiyning tojik bollari uchun mo'ljallangan „Alifboi maktabi Islomiya“ (1906) kitoblaridan ancha farq qilib chuqur ma'no va mazmunga ega edi. 1912-yilga kelib Shoir Munavvarqori o'quvchilarga husnixat, jug'rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi fani kabi fanlarni oshkora o'qita boshlaydi. Maktab ostonasida qorovul qo'yib bolalarga ijtimoiy sohalardan saboq bera boshlaydi. Rus tilini o'qitish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Ze'roki Dushmani yengmoqchi bo'lsang, uni o'rgan, aqidasiga amal qilgan Munavvarqori quyidagilarni „Ma'viza“ bitmasini beradi. „Sirdaryo viloyati Xalq o'quv yurtlari direktori janobi oliylariga Toshkent Shahar Shayx Hovandin Tohur daha Tarnovboshi maktabining muallimidan: siz izzatlikdan men boshqarayotgan maktabda, musulmoncha ta'limdan tashqari quyidagi predmetlar: arifmetika, o'qish kitobi, jug'rofiya va dunyo ma'lumotini mazkur dastur asosida o'qitmoqqa ijozat berishingizni so'rash sharafiga muyassarman. (O'qituvchi M, Q. Abdurashidxonov 1911. Y. fevral). Munavvarqori maktab maorif islohoti tom ma'nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmaydi. 1914-1916-yillarda kelib Turkistondagi ko'pgina maktablar Munavvarqori Tuzgan dastur asosida ishlar edi. 1917- yilda Munavvarqori Toshkent shahar dumasiga a'zo etib saylanadi ammo bir yil oldin u ayni maktab masalasida shahar ma'murlari bilan jiqqamush bo'ladi. Kuropatkin oldiga bollarni boshlab borib usuli jadid maktablariga keng yo'l berishni so'raydi. Yosh shoir hisoblangan Munavvarqorining shogirdi To'g'ru (B. Haydariy) gubernator ostonasida turib, ustozining niyatini ma'qullab A.N. Kuropatkin sha'niga she'rlar to'qiydi. Bu ish uchun Munavvarqorini hibsga oladilar. Ammo ko'p o'tmay ozod qilingan Munavvarqori 1917-yil 6-sentabrda shahar boshlig'I N.G. Malliskiy oldiga masalani ilgari suradi. Munavvarqori tatarcha darsliklar va rossiya va Yevropadan tatar o'qituvchilarini chaqirish mumkinligini va ularni yaxshi mukofot bilan taqdirlash lozimligini aytadi. Bir so'z bilan aytganda Munavvarqori sartlarni tatarlashtirish to'g'risida yaxshi yo'lni ko'rsatadi. Shu bois bu mahalliy aholi vakillari bilan kelishib olingach maxsus komissiya e'tiboriga taqdim etish lozim. Shundan keyin tezda Toshkent Dumasi Munavvarqori tomonidan Toshkentda 1917-1918 o'quv yilida ochilajak, „Milliy Maktab“ uchun 37 ming so'mdan ortiq miqdorda yangi kredit ochishga ruxsat berishga qaror qiladilar. Munavvarqori „Milliy maktab“ asoschisi bo'libgina qolish bilan birga chet elga bollarni o'qishga yuborish masalasini yechishga intiladi. Yaxshisi keksa san'atkor Abdurahmon Akbarov xotiralariga ko'z tashlasak unda quyidagicha: „To'dadagi jadiclarning bosh rahbari bo'lgan Munavvarqori bir kuni to'daning majlisiga kelib, „Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o'qitish kerak deb uzoq nutq so'zladi. Shundan keyin to'daning rahbarlaridan 7-8 kishu Orifxo'jaboyning Yangi Shahrdagi hovlisida shu tariqa 1-majlisni o'tkazdilar. Ammo Toshkentlik boyonlarning ko'pchiligi 2-majlisni Shayx Hovandi Tohurlik Kattaxo'ja Xo'jayevning uyida o'tkazishga qaror qiladilar. [10]. Chunonchi, mavlono Fuzuliy derki; „Sanamlar sajdasidur bizda toat tangrichun zohid, Kishi ko'rsang sen o'z diningda taklifi namoz ayla“ deydi buni zohiran muholifi kitobga borib taqaladi degan fikrlarni ilgari suradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nafaqat Toshkent balki butun Turkistondagi jadidchilik harakati va faoliyatida Munavvarqori faoliyati va uning ilmiy me'rosining o'zni nihoyatda beqiyosdir. Men shunday buyuk nafaqat jadid, balki beqiyos ma'rifatparvar, yetuk ilm sohibi avlodi ekanligimdan o'zgacha faxr tuyg'usini his qilaman.

6. „Xotiralarimdan“ T., 2001. S-114; 189; 156.
7. „Turon Tarixi“ Toshkent T., 1991. S- 265; 268; 273.
8. Essay „Activities of Uzbek Jadids“ year-2020; No; 10.
9. „Turkestan Autonomy“ Tashkent T., 2019; Page-145; 178; 197.
10. „Tanlangan asarlar“ „Toshkent Ma'naviyat' 2003 yil S-3;4;5;6;7;9;10;14; h.k.z

Foydalanilgan Adabiyotlar!

1. 'Representatives of the jadid on movement" T., 2009 Page-15: 18; 34: 67
2. Thoughts of the turk on the Jadid T., 2010 Page- 698: 134; 167
3. .Munavvarqori Abdurashidxonov „Yer yuzi“ 1915-1916-yillar S-4; 5; 6; 7.
4. Sirojiddin Ahmad „Munavvarqori“ esse „Sharq yulduzi“ jurnali 1992-yil 5-son.
5. Xolboyev S. „Munavvarqori“ „Fan va Turmush“ T.,1991. S- 145; 176; 190.
6. „Xotiralarimdan“ T., 2001. S-114; 189; 156.
7. „Turon tarixi“ Toshkent T., 1991. S-265; 268; 273.
8. Essey „Activities of Uzbek Jadids“ year-2020; No; 10
9. „Turkestan Autonomy“ Tashkent T., 2019; Page-145; 178; 197.
10. „Tanlangan asarlar“ „Toshkent Ma'naviyat“ 2003 yil S-3;4;5;6;7;9;10; 14 va h.k.z.